

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2024- yilning 3-choragida amalga oshirilgan ishlar

Masofaviy tarzda, video aloqa orqali o'tkazilgan kengaytirilgan Kengash yig'ilishini boshqarma boshlig'i U. Djumanazarov ochib berdi va yig'ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o'tdi.

Yig'ilishda, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 21- dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son farmoni doirasida joriy yilning 4- mart kuni tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-114-son qaroriga alohida to'xtalib o'tildi. Takidlandiki, yangi qarorda:

- Statistika organlarining qonuniy faoliyatiga, shu jumladan, statistika kuzatuvlarini o'tkazish, statistika ma'lumotlarini tayyorlash va ularni e'lon qilish jarayonlariga har qanday aralashishga yo'l qo'yilmasligi;
- Boshqarma hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil va bevosita Statistika agentligiga bo'ysunishi;
- Buxoro viloyatining 2024-2025-yillarda erishishi lozim maqsadli ko'rsatkichlari;
- Boshqarma hamda tuman (shahar) statistika bo'limlari tarkibi va nizomi tasdiqlanganligi e'tirof etildi.

Shuningdek, Buxoro viloyati statistika organlarida 2024- yil 3- chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.

Bundan tashqari, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari nirivojlantirish bo'yicha maqsadli kompleks dasturlar monitoring uchun doimiy ravishda miqdoriy ko'rsatkichlar shakllantirib borildi, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi holatini kompleks tavsiflovchi tahliliy-statistik ma'lumotlar tayyorlanib, har oyda Statistika agentligi va viloyat hokimligiga taqdim etib borildi.

Jumladan, Statistika dasturi doirasida boshqarma va tuman (shahar) statistika bo'limlari tomonidan 2024- yilning 3- choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma'lumotlarni keltirib o'tdi.

Jumladan, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida Buxoro viloyatining yalpi hududiy mahsuloti hajmi joriy narxlarda 48 744,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,8 foizga o'sdi.

Shuningdek, viloyat korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 28,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi 106,1 foizni tashkil etdi.

Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 28,9 trln. soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 101,7 foizga yetdi.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar hajmida 2023-yilning mos davriga nisbatan (144,5 foiz) oʻsish kuzatildi. Viloyatda jami 11,6 trln. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 109,3 foizga teng boʻldi.

Roʻyxatdan oʻtgan korxonalar va tashkilotlar soni 2024-yilning 1-oktabr holatiga koʻra (fermer va dehqon xoʻjaliklarisiz) 41 266 tani tashkil etib, ulardan 29 366 tasi yoki 72,5 foizi faoliyat koʻrsatmoqda.

2024-yilning yanvar sentabr oylarida viloyatda 4 250 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan.

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida koʻrsatilgan bozor xizmatlari hajmi 23,8 trln. soʻmni, 2023- yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 112,1 foizni tashkil etdi.

Chakana savdo Tovar aylanmasi 14,4 trln soʻmni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,3 foizga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 965,8 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport 222,6 mln. AQSH dollarini va import 743,2 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Yigʻilishda, Buxoro viloyati statistika boshqarmasi va boʻlimlarida 2024-yil 3-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar hamda kelgusida statistika faoliyatini tashkil etish yuzasidan tizim oldiga belgilab berilgan vazifalarning ijrosi holati, hisobot va ijro intizomini mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar samaradorligi muhokama etildi.